"MUXAMMAS"SHE'RSHAKLIPOETIKASININGMUHIMXUSUSIYATLARI

Ernazarova Nilufar Umarovna
Navoiy davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23139075

Annotatsiya. Ushbu tezisda g`azaldan keyin eng ko`p yaratilganlirikjanr-muxammas haqida ilmiy-nazariy tahlil va talqinlar keltirilgan.

Kalitso'zlar. Beshlik,taxmis,mustaqil muxammas,"Xazoyinul-maoniy",lirikqahramon, botiniy dunyo, uslub, majoziy ishq, ruhiy qiyofa, bayoziy muxammasot, muxammas qasida.

Sharq adabiyotining nodir namunalari uzoq asrlardan butun dunyo olimlarining diqqatiga sazovordir. Mumtoz adabiyotning lirik janrlari xilma- xilligi, obrazlar silsilasi, shakl va mazmun ohangdorligi bilan ilm ahlining hayratini oshirmog`iga sabab bo`lib kelmoqda. Shu asnoda, muxammas janrining o`ziga xos xususiyatlari va janriy tarkibi haqida fikryuritamiz.

Muxammas – arabcha "beshtadan", "beshlik" ma`nosiga teng. G`azal janridan keyin eng ko`p yaratilgan lirik janr. Muxammasning har bir bandi besh misradan iborat. Birinchi bandning misralari to`liq qofiyalanadi, keyingi bandlarning oxirgi misrasidastlabki bandga qofiyadoshbo`ladi(a-a-a-a-a; b-b-b-b-a; )Muxammas yaratilish usuligako`raikkixilko`rinishgaega :

1. Maxsus yozilgan mustaqil muxammas. Bu turdagi o`zbekcha muxammasning hozircha ma`lumdastlabkinamunasiHofizXorazmiydevonidauchraydi.
2. Taxmis yo`li bilan, ya`ni g`azal baytlariga uch misradanqo`shish yo`li bilan paydobo`lganmuxammas.

Keyingisio`zihammohiyate`tibori bilanikki xilbo`ladi: a) o`zg`azaligamuxammas ; b) boshqaijodkorlar g`azaliga taxmis qilish. Taxmis qilish shunchaki haklbozlik emas, balki,ijodkorning mahorat sinovidir. Avvalo, u yoki bu shoirning muayyang`azalini tanlashda shoirning dunyoqarashi,sinfiy va estetiknuqtai nazari hal qiluvchi rol o`ynaydi. Qolaversa, taxmis usuli har bir shoir uchun mahorat sinovi, ilhomlantiruvchi kuch yoki biror muhim fikrni ro`yobga chiqarish vositasi bo`lishi mumkin.

Hazrat Alisher Navoiy devonida muxammasning mustaqil va taxmis turi ham mavjud. "Xazoyin ul-maoniy"da 10ta o`zbekcha muxammas bo`lib, ularning bittasi yoshlikda, to`rttasi yigitlik va beshtasi keksalik davrida yozilgan. Taxmislarning uchtasiLutfiyg`azallari, beshtasi o`ziningmashhurg`azallari ("Koshki", "Judo", "Seni", "Qilmading", "Yigit") asosida yaratilgan. Shunisi,diqqatga sazovorki, yoshlik davriga oid birinchi taxmisga ham Lutfiyning g`azali asos bo`lgan. Mavlono Lutfiyning "Laylat ul – me`rojning "deb boshlanuvchig`azaliasosidayaratilgan birinchi taxmisdayoqyoshNavoiyningnovatorligi , estetik vama`naviybeqiyosliginamoyonbo`lgan .

HazratAlisherNavoiyningustoziLutfiygabo`lganehtirominiushbuholatdanham payqashqiyin emas .Avvalo, taxmisgag`azalning talmeh, tashbeh va mubolag`agaasoslangan ko`tarinki uslubi yuksak saviyada saqlabqolingan. Qolaversa ,manzur jamoliningtavsifidan iborat bo`lgan g`azalning tub mohiyati kengroq sharhlanishi tufayli uning haqiqiy falsafiy zamini oydinlashgan.Natijada lirik

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qahramonningbotiniydunyosi –majoziyishqnihaqiqiyishqqa eltuvchi ko`priksifatida e`tirof etuvchi shaxsningruhiy qiyofasitaxmisda mantiqan asoslanganholda namoyon bo`ladi(xususan, oxirgi bandda):

Har gado egnida bo`lsa eski to`n yo chok jayb,
Bilmayasliniyatin,qilmoqg`alatdurshakku–rayb,
EyNavoiy,chunsangama`lum emasdursirrig`ayb,
Lutfiyni mayxonaga oshufta ko`rsang, qilma ayb, Kim
bu majnun ixtiyori zulfi qullobindadur.

Navoiydan keying davr – o`zbek adabiyotida, xususan, XIX asr Qo`qon, Xorazm va Buxoro adabiy muhitida muxammasning har ikki shakli alohida yo`nalishsifatida nihoyatda rivoj topdi. Hatto, Xorazmda Muhammad Rahimxon Soniy Feruz hukmdorligi davridafaqat muxammaslardan tarkibtopganmaxsus bayozlartuzilgan va " Bayozimuxammasot" deb yuritilgan, shu turkum asosida elorasida kengommalashgan. Muxammastarixi adabiyvorislik, adabiyta`sir hamdaadabiy aloqalar tarixini o`rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.Sharq mumtoz adabiyotida muxammasningyana birajoyib turi mavjud bo`lgan. Bu "Muxammas – qasida" deb yuritilgan. Muxammas qasida usluban g`azalga monand a-a, b-a, v-a tarzida qofiyalanadi. Faqat hajmi, tarkibi va mavzu jihatidan g`azaldan tubdan farq qiladi. Ko`p asrlik adabiy jarayonda muxammas – qasidaning mavzu doirasi boyigan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Alisher Navoiy yoshlik va yigitlik chog'larida turkiy shoirlardan Lutfiy ijodiga yuksak ehtirom bilan qaragan va turkigo'y shoirlar orasidan aynan Lutfiy g'azallarigamuxammas bog'lagan. Keyinchalik (o'ttiz yoshdan keyin) yozgan taxmislariga esa o'z g'azallarini asos qilib olgan. Taxmis uchun tanlangan g'azallarning deyarli barchasi shoirning yoshlik va yigitlik davrida yaratilgan bo'lib, ularning "Ilk devon", "Badoe' ul-bidoya" hamda "Navoir un-nihoya"da uchrashi bu fikrni isbotlaydi. Ijod – keng ummondir. Biz mazkur taxmislarni o'qir ekanmiz, yoshi ulg'ayib borayotgan Navoiyning ichki dunyosi va navqiron Alisherning qaynoq hissiyotlari san'atkorona uyg'unlashganigaguvohbo'lamiz.

Yuksak san'at namunasi bo'la oladigan ijodiy asarlarning yaratilishio`qug`uvchilar uchun hamisha qiziqbo'libkelgan.Mazkurxulosalardankelibchiqibaytishmumkinki,AlisherNavoiymuxammaslarining yaratilish xususiyatlarini tadqiq qilish shoirning ijod va ilhom hissiyotlari va o`ziga xos sirliligi bilan bog'liq tasavvurlarni aniqlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilganadabiyotlar:

1. N.Mallayev."Navoiyasarlaridaetnografikma`lumotlar".@Turkistonkutubxonasi,-12-20b.
2. B.Valixo`jayev."AlisherNavoiyvauningizdoshlaritalqinidatuyuq".
3. @Turkistonkutubxonasi,-67–70b.
4. NavoiyAlisher.Xazoyinulmaoniy(Ilmiy-tanqidiytekstasosidanashrgatayyorlovchi
5. H.Sulaymonov).4jildlik.4-jild.–T.:Fan,1960

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.